ISSN:
3030-3311

Volume|3 Issue|4 April 2025

JCWS

Journal of Contemporary World Studies



https://bestjournalup.com/index.php/jcws

VOLUME | 3 ISSUE | 4 |APRIL | 2025



JCWS

PUL MABLAG‘LARINING BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

O‘rolova Aziza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: aziza.uralova@icloud.com



Accepted Date:
May 25, 2025,
Published Date:
May 31, 2025

Journal Website:
https://bestjournalup.com/index.php/jcws/issue/view/jcws4

License

This work is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.

ANNOTATION:

Maqolada pul mablag‘i tushunchasi haqida to‘xtalib, Buxgalteriya hisoboti va hisobini yuritishda pul mablag‘lari hisobini ahamiyati, maqsadi, amal qilish sohasi,dolzarbligi kabi tushunchalar aks etgan. Korxonalarda pul mablag‘lari oqimini samarali boshqarish va optimallashtirishdagi bir qancha tamoyillar keltirib o‘tilgan

KEYWORDS:

pul oqimi, mablag‘lar oqimi, ekvivalent, hisobot, moliyaviy ahvol, baholash, subyekt, foyda, prognozlash, bozor munosabatlari, ustav kapitali, mulk egalari, iqtisodiy o‘sish, biznes, mulk.

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasini rivojlantirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada iqtisodiy o‘sish, biznes, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab–quvvatlashga alohida e`tibor berilmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida pul mablag‘laridan oqilona foydalanish, ayniqsa, korxonalarda pul mablag‘lari oqimini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda so‘ngi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xususan, korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati va qiymatini oshirishdagi vazifalari alohida belgilab berilgan edi.Ularning ijrosini amalda tadbiq etish yuzasidan bir qancha muhim vazifalar belgilab berilib, aniq maqsad va vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozrgi kunda iqtisodiyot sohasini rivojlantirish, korxonalarda pul mablag‘lari hajmini oshishiga, shuningdek, pul mablag‘lari oqimini prognozlash muhim vazifalardan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida naqd pulsiz hisob kitoblardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillaridan biridir. Chunki korxonalar faoliyatining uzluksiz davom etishini ta’minlash uchun zarur ishlab chiqarish zahiralari va mehnat vositalari sotib olish, davlat byudjetidan tashqari fondlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish uchun ma’lum miqdorda naqd pulsiz hisob kitoblar talab qilinadi. Shuning uchun ham korxonalar mavjud pul mablag‘larini yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga sarflashda iqtisodiy jihatdan manfaatli va tejamli bo‘lgan hamda korxonaga o‘z mablag‘laridan ratsional foydalanish imkonini berishni birinchi navbatda hisobga olish zarur.

Asosiy qism

Ma’lumki, iqtisodiyot rivojlanishining barcha bosqichlarida naqd pulsiz hisob kitoblar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va ularni hisobga olish tartibi o‘sha davrdagi iqtisodiyotning rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan. Chunki har qanday bosqichda iqtisodiyotning rivojlanishi u yoki bu modeliga amal qilgan va uning ajralmas qismi sifatida esa buxgalteriya hisobi ishtirok etgan. Bozor munosabatlarining shakllanishi va uning chuqurlashuvi naqd pulsiz hisob kitoblar hisobining uslubiy asoslari va ularning harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning sifat jihatidan o‘zgarishini talab qilmoqda. Shuning uchun ham naqd pulsiz hisob kitoblarning hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me’yoriy hujjatlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Shu asosda so‘ngi yillarda Respublikamizda naqd pulsiz hisob kitoblar hisobini tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy hujjatlar bozor iqtisodiyoti talablaridan kelab chiqqan holda ishlab chiqilmoqda.

Korxona har qanday faoliyatini pul mablag‘laridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Korxona pul mablag‘lari asosan mahsulot, ish va xizmatlar, shuningdek qimmatbaho qog‘ozlarni va mol mulkni sotishdan kelib tushadi.

Korxona o‘ziga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini o‘zining asosiy va qo‘shimcha faoliyatni rivojlantirish, tovar moddiy qiymatliklarini sotib olish, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to‘lash, kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish va davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarga va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarning ko‘rsatgan xizmatlari uchun sarflashi mumkin.

Pul mablag‘larining qaysi manbalardan tashkil topishi va ularning sarflanishi alohida ahamiyatga ega.

Korxona yoki tashkilot tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirishda barcha yuridik shaxslar quyidagilarga amal qilishi shart:

- mulkchilik shaklidan qat’iy nazar pul mablag‘larini bank muassasalarida saqlashlari;

- yuridik shaxslar o‘rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar ishtirokidagi hisoblashuvlar faqat bank muassasalari orqali hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida amalga oshirilishi ;

- bank muassasasidan olingan naqd pullar qaysi maqsadlar uchun olingan bo‘lsa, o‘sha maqsadlargagina sarflanishi ;

- tashkilot o‘z kassasida faqat bank muassasasi rahbari tomonidan tashkilot rahbari bilan kelishilgan holda belgilangan limit chegarasida naqd pul saqlashi ;

- tashkilot o‘z kassasida limitdan ortiqcha naqd pullarni faqat mehnat haqi,

stipendiya, mukofot, nafaqa berish vaqtida 3 kun muddatda saqlashi mumkin;

- savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridan kelib tushgan tushumlarni mehnat haqi, pensiya va nafaqalarni to‘lash uchun sarflash ta’qiqlangan;

- xizmat safarlari uchun beriladigan pul mablag‘i o‘sha hududda belgilangan sarf-xarajatlar me’yorida bo‘lishi ;

- sarflanmagan naqd pullar tashkilot kassasiga 3 kun ichida qaytarilishi va naqd pul olgan hisobdor shaxs buxgalteriyaga bo‘nak hisoboti topshirishi shart.

Pul mablag‘lari korxona iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo‘lganligi bois korxona mablag‘lari bir vaqtning o‘zida aylanishning barcha bosqichida bo‘lishi mumkin. Chunki ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida pul mablag‘lari u yoki bu miqdorda sarflanadi. Shuning uchun ham korxonada doimo ma’lum miqdorda pul mablag‘larini bo‘lishi talab etiladi.

Pul mablag`larining korxona iqtisodiyotida tutgan o`rni uning asosiy vazifalarini bajarish uchun buxgalteriya hisobi boshqaruv apparatini tegishli ma`lumotlar tuplami bilan ta`imnlanishi zarur. Buning uchun esa pul mablag`lari hisobining oldida kuyidagi asosiy vazifalar turadi:

- korxonaning pul mablag`larini samarali boshqarish uchun zarur ma`lumotlar iblan ta`minlash;
- tulov va hisob-kitoblarni pul muomalalarini tartibga soluvchi meyeriy hujjatlarda kursatilgan tartiblarga rioya kilgan xolda uz vaktida amalga oshirish;
- hisob registrlarida pul mablag`larini naqdligi va xarakatlarini uz vaktida aks ettirish, chunki pul mablag`larining xarakati korxonaning faollik darajasining asosiy kursatkichlaridan biridir.
- pul mablag`larining belgilangan maksadlarga sarflanishi, smeta va limitlarga amal kilishini nazorat kilish;
- pul mablag`larining inventarizatsiyasini belgilangan muddatlarda utkazishini ta`minlash va uzaro hisob-kitoblar, muddati utgan debitorlik va kreditorlik karzlarini tulanishini nazorat kilish;
- kassadagi, hisoblashish, valyuta va bankdagi boshqa schyotlarda saklanayetgan pul mablag`larining saklanishining nazoratini ta`minlash;
- pul resurslarining xarakat okimini prognozlash va optimizatsiya kilish buyicha tegishli boshqaruv karorlarini kabul kilish.

Ushbu masalalarning muvaffakiyatli bajarilishi korxonaning pul mablag`laridan samarali foydalanishni ta`minlovchi boshqaruv karorlarini kabul kilish imkoniyatini yaratadi. Albatta, yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun pul mablag`larining buxgalteriya hisobini tugri tashkil kilish zarur buladi. Buning uchun esa korxonalarda mavjud mablag`larni turkumlash aloxida axamiyatga egadir.

Korxonalarga pul mablag`larining buxgalteriya hisobini yuritish ko‘p jihatdan ularning turkumlanishiga bog‘lik. Chunki pul mablag`larini manbalardan kelib tushishi va kaysi yunalishlar buyicha sarflanishini taxlil

kilish asosida ulardan samarali va maksadga muvofik foydalanish mumkin.

Xozir amaliyotda pul mablag`lari kuyidagicha turkumlanadi va ular buxgalteriya hisobini yuritishda foydalaniladi.

1. Valyutalarni turlari buyicha guruxlash.
2. Kaysi joyda saklanish buyicha guruxlash.
3. Kaysi maksadlarga sarflanishi buyicha guruxlash.
4. Kaysi manbalardan kelib tushishi buyicha guruxlash.
5. Pul mablag`larining turlari buyicha guruxlash.

Xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning to‘lov qobiliyatiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, to‘lov qobiliyatining mazmuni eng avvalo bo‘sh pul mablag‘larining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham, korxonalarda mavjud bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘laridan samarali foydalanish uchun ularni aylanmaga kiritish alohida ahamiyatga ega.

Korxonalarning bankdagi milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlarida saqlanayotgan pul mablag‘lari mamlakatimiz iqtisodiyotining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki ular banklarning aktiv operatsiyalarini jonlanishini ta’minlaydi, milliy va chet el valyutalarining ishlab chiqarish jarayonidagi aylanishini tezlashtiradi va u bunda birdaniga ikkita muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, korxonalarning ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish yo‘li bilan pulning aylanishini va milliy valyuta hisobiga qaratilayotgan yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy daromadni o‘sishini ta’minlaydi. Ikkinchidan esa, korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi bank hisob raqamlaridagi pul mablag‘larini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilganligi uchun bank o‘z mijozlariga ma’lum miqdorda haq ham to‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saitov S. Transport korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 41-47.
2. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.
3. Saitov S., Tuychieva N. Main factors affecting economic growth in the country and their dynamics //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 53-64.
4. Kamolov D., Qilicheva R. SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 314-320.
5. Kamolov D., Asrayev S. STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 353-361.
6. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
7. Saitov S., Nematova S. O‘ZBEKISTONDA NARX SIYOSATI VA UNING YO‘NALISHLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 188-197.